

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH

Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta’minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibli: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





G'YOSOV ILXOM KARIMOVICH

Qurilish sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning metodologik asoslari.....287

BOLLIYEV SHAMSIDDIN TURSUNMAMATOVICH

Kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslari....300

SHARIPOV LAZIZ AKTAM O'G'LI

Comparing parametric and non-parametric efficiency measurement under data quality constraints: stochastic frontier and dea evidence from smallholder sweet sorghum farms in Uzbekistan.....306

KARIMOVA MUHAYYO ORIF QIZI

Qandolatchilik mahsulotlarining sifat nazoratini oshirishda statistik usullardan foydalanishni takomillashtirish.....314

URALOV ELSHOD SIROJIDDIN O'G'LI

Mintaqada intellektual va texnologik salohiyat tushunchasining tatbiq etish.....322

MOVLONOVA DILRABO NOMOZ QIZI

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda klasterlash mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual asoslari.....328

JO'RAYEVA SHAXLO UCHQUN QIZI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning aholi bandligiga ta'siri.....340

AXMEDOVA NAFISA AMIRDDIN QIZI

Innovatsion rivojlanish sharoitida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish.....347

MIRZAYEV MUZAFFAR MAXMUDOVICH

Yaponiya-O'zbekiston investitsiya hamkorligi: institutsional tuzilma va evolyutsiya bosqichlar.....356

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

MASHRAPOV AHLIDDIN TURSUNALIEVICH

Farg'ona viloyatining unumdorligi past tuproq – iqlim sharoiti uchun mos, yuqori hosilli o'rik navlarini tanlash.....366

ESHPUATOV DOSTONBEK BOXODIR O'G'LI

Iqlim o'zgarishining paxta va bug'doy hosildorligiga ta'siri: O'zbekiston tumanlari bo'yicha panel ma'lumotlar tahlili (2015–2024).....371

RUZMETOV UMID ISMAILOVICH, ULUGOVA SAFARGUL FAYZULLAEVNA

Toshkent viloyati Bo'stonlik tumani sharoitida dorivor enotera (Oenothera Biennis L.) o'simligini yetishtirish uchun tuproqlarning mexanik tarkibi va agrokimyoviy xususiyatlarini baholash.....385

ПАВШАНОВА Н.А.

Урожайность и продуктивность совмещённых посевов сортов маша с хлопчатником в условиях Ташкентской области.....391

CHARIEVA XILAL DO'STMURATOVNA, TADJIEV MARDONQUL, DJURAEV BAYNIYAZ CHARIEVICH, BEGIMQULOV BEHZOD O'ROLOVICH

Ingichka tolali g'o'zaning konkurs nav sinovi ko'chatzoridagi navlar va tizmalarining qimmatli xo'jalik belgilari.....398





YAPONIYA-O'ZBEKISTON INVESTITSIIYA HAMKORLIGI: INSTITUTSIONAL TUZILMA VA EVOLYUTSIYA BOSQICHLAR

MIRZAYEV MUZAFFAR MAXMUDOVICH

Vatan universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri, PhD dotsent v.b.

E-mail: muza.mirzayev@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-0069-3569>

Annotatsiya. Maqola Yaponiyaning O'zbekistondagi investitsiya faoliyatini institutsional tuzilma hamda moliyaviy majburiyatlarning hajmi va tarkibi kesimida kompleks baholashga qaratilgan. Alohida e'tibor 2025-yil dekabrda ikki tomonlama munosabatlarning "Kelajak avlodlar uchun kengaytirilgan strategik hamkorlik" darajasiga ko'tarilishi bilan bog'liq sifat o'zgarishlariga qaratildi. Ishda ikkilamchi ma'lumotlar tahliliga asoslangan aralash yondashuv qo'llanildi: rasmiy statistik manbalar va institutsional hisobotlarning tavsifiy-statistik tahlili, hujjatlarning kontent-tahlili hamda hamkorlik bosqichlarini ajratish uchun qiyosiy-tarixiy usul. Empirik baza 26 ta birlamchi va ikkilamchi manbani qamrab oladi. Tahlil natijasida Yaponiyaning investitsiya faoliyati to'rt darajali institutsional tuzilma orqali amalga oshirilishi aniqlandi. JICA jalb qilgan mablag'lar hajmi 8,3 mlrd dollardan, JBIC portfeli 5 mlrd dollardan oshdi; 2025-yil dekabrda umumiy qiymati 12 mlrd dollardan ortiq bo'lgan yangi loyihalar portfeli shakllantirildi. Portfellar qisman bir-birini qoplagani sababli ularni oddiy qo'shish orqali «umumiy investitsiya» ko'rsatkichini olish metodologik jihatdan noto'g'ri bo'ladi. Hamkorlik modelining 1992-yildan boshlangan to'rt bosqichli evolyutsiyasi ajratildi.

Kalit so'zlar: Yaponiya, O'zbekiston, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, JICA, JBIC, NEXI, ODA, projekt-finansing, strategik hamkorlik, Markaziy Osiyo + Yaponiya.

Аннотация. Цель исследования – дать всестороннюю оценку инвестиционной деятельности Японии в Узбекистане с точки зрения институциональной структуры, а также объема и структуры финансовых обязательств. Особое внимание уделяется качественным изменениям, связанным с повышением уровня двусторонних отношений до уровня «Укрепленного стратегического партнерства для будущих поколений» в декабре 2025 года. В исследовании использован смешанный подход, основанный на анализе вторичных данных: описательно-статистический анализ официальных статистических источников и институциональных отчетов, контент-анализ документов и сравнительно-исторический метод для выделения этапов сотрудничества. Эмпирическая база охватывает 26 первичных и вторичных источников. Установлено, что инвестиционная деятельность Японии реализуется через четырехуровневую институциональную структуру. Объем привлеченных JICA средств превысил 8,3 млрд долларов, портфель JBIC – 5 млрд долларов; по состоянию на декабрь 2025 года сформирован портфель новых проектов общей стоимостью более 12 млрд долларов. Поскольку портфели частично перекрывают друг друга, их суммирование методологически некорректно. Выделена четырехэтапная эволюция модели сотрудничества, начиная с 1992 года.

Ключевые слова: Япония, Узбекистан, прямые иностранные инвестиции, JICA, JBIC, NEXI, ОПР, проектное финансирование, стратегическое партнерство, Центральная Азия + Япония.

Abstract. The study aims to provide a comprehensive assessment of Japan's investment activities in Uzbekistan in terms of institutional structure and the volume and composition of financial commitments. Particular attention is paid to qualitative changes associated with the elevation of bilateral relations to the level of "Enhanced Strategic Partnership for Future Generations" in December 2025. The study used a mixed approach based on secondary data analysis: descriptive-statistical analysis of official statistical sources and institutional reports, content analysis of documents, and comparative-historical methods to distinguish stages of cooperation. The empirical base covers 26 primary and secondary sources. The analysis shows that Japanese investment activity is implemented through a four-level institutional structure. The volume of funds attracted by JICA exceeded \$8.3 billion, the JBIC portfolio exceeded \$5 billion; as of December 2025, a portfolio of new projects with a total value of more than \$12 billion was formed. Since the portfolios partially overlap, their simple summation is methodologically incorrect. A four-stage evolution of the cooperation model since 1992 is identified.

Keywords: Japan, Uzbekistan, foreign direct investment, JICA, JBIC, NEXI, ODA, project financing, strategic partnership, Central Asia + Japan.





KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining 2017-yildan boshlangan bosqichma-bosqich ochilishi mamlakat oldiga xorijiy kapitalning sifatli – ya'ni texnologiya, boshqaruv tajribasi va eksport bozorlariga chiqish imkoniyatini birga olib keladigan – oqimini jalb qilish vazifasini qo'ydi. Ushbu kontekstda Yaponiya alohida o'rin tutadi. Birinchidan, Yaponiya 1992-yildan beri, ya'ni diplomatik aloqalar o'rnatilgan paytdan boshlab, mamlakatning eng yirik rasmiy rivojlanish yordami (ODA) donorlaridan biri bo'lib kelmoqda. Ikkinchidan, so'nggi yillarda yapon kapitali gumanitar va imtiyozli kreditlash formatidan chiqib, energetika, infratuzilma va sog'liqni saqlash sohalarida yirik tijorat loyihalariga bevosita ishtirokchi sifatida kirib bormoqda.

2025-yil dekabrda bo'lib o'tgan voqealar bu jarayonning burilish nuqtasi bo'ldi: O'zbekiston Prezidentining Tokioga rasmiy tashrifi doirasida "Kelajak avlodlar uchun kengaytirilgan strategik hamkorlik to'g'risida"gi Qo'shma bayonot imzolandi va umumiy qiymati 12 mlrd AQSh dollaridan ortiq bo'lgan yangi loyihalar portfeli shakllantirildi [1; 2; 19]. Ayni paytda "Markaziy Osiyo + Yaponiya" dialogining birinchi sammiti o'tkazilib, Tokio deklaratsiyasi qabul qilindi, bu esa ikki tomonlama hamkorlikni ko'p tomonlama mintaqaviy asosga ham bog'ladi [12; 24].

Shu bilan birga, Yaponiyaning O'zbekistondagi moliyaviy ishtiroki bir nechta parallel oqim orqali shakllanadi va turli institutlar tomonidan alohida-alohida e'lon qilinadi. Portfellar qisman bir-birini qoplagani sababli ularni oddiy qo'shish orqali «umumiy investitsiya» ko'rsatkichini olish metodologik jihatdan noto'g'ri bo'ladi. Aynan shu holat – e'lon qilinayotgan majburiyatlarning real hajmi, tarkibi va institutsional mansubligini aniqlashtirish zarurati – tadqiqotning asosiy muammosini tashkil etadi.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston-Yaponiya iqtisodiy munosabatlari bo'yicha mavjud tadqiqotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh – tarixiy-diplomatik yondashuv: bunda hamkorlikning huquqiy asoslari, ikki tomonlama qo'mitalar faoliyati va yuqori darajadagi tashriflar tahlil qilinadi. Ikkinchi guruh – rivojlanish iqtisodiyoti yondashuvi: JICA doirasidagi ODA loyihalarining samaradorligi, texnik yordamning inson kapitaliga ta'siri o'rganiladi. Uchinchi guruh – geoiqtisodiy yondashuv: Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi ishtiroki Xitoy, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi va Rossiya bilan raqobat kontekstida ko'rib chiqiladi.

Mavjud adabiyotlarda aniqlangan tadqiqot bo'shlig'i (research gap) quyidagilardan iborat: (a) 2025-yil dekabrda kelishuvlar juda yaqinda qabul qilinganligi sababli ular hali tizimli ilmiy tahlil obyekti bo'lmagan; (b) turli yapon institutlari (JICA, JBIC, NEXI) hamda korporativ ishtirokchilar e'lon qiladigan moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zaro nisbati va qoplanish darajasi alohida o'rganilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan.




TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlar tahliliga asoslangan aralash yondashuv qo'llanildi. Birinchidan, rasmiy statistik manbalar va institutsional hisobotlarning tavsifiy-statistik tahlili amalga oshirildi. Ikkinchidan, ikki tomonlama hujjatlar, qo'shma bayonotlar va institutlarning matbuot xabarlarini kontent-tahlil qilindi. Uchinchidan, hamkorlik bosqichlarini ajratish uchun qiyosiy-tarixiy usuldan foydalanildi. Empirik baza 26 ta birlamchi va ikkilamchi manbani – Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi, JICA, JBIC, NEXI, ADB, Sumitomo Corporation va Sojitz Corporation rasmiy materiallarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlarini, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi va Milliy statistika qo'mitasi ko'rsatkichlarini qamrab oladi. Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlilida instrumentlar bo'yicha ajratilgan yondashuv qo'llanildi: har bir institut va loyiha bo'yicha majburiyatlar alohida qayd etilib, ular jamlanmadi, chunki ko'rsatkichlar o'zaro qisman qoplanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hamkorlikning institutsional arxitekturasini. Tahlil ko'rsatkichi, Yaponiyaning O'zbekistondagi investitsiya faoliyati to'rt darajali institutsional tuzilma orqali amalga oshiriladi. Yuqori darajada siyosiy-huquqiy asos joylashgan: 2002-yildagi Do'stlik, strategik hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma bayonotdan boshlangan va bugungi kunda 140 dan ortiq hujjatni qamrab olgan shartnomaviy baza. Ikkinchi darajada davlat organlari – Yaponiya tomonidan Tashqi ishlar vazirligi (MOFA) va Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI), O'zbekiston tomonidan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi turadi. Ular o'rtasidagi muvofiqlashtiruvchi bog'in sifatida 1994-yilda tashkil etilgan ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik qo'mitalari va 2025-yildan boshlab "Markaziy Osiyo + Yaponiya" formati xizmat qiladi.



Manba: [1; 2; 13; 14] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-rasm. Yaponiya-O'zbekiston investitsiya hamkorligining institutsional arxitekturasini

Uchinchi – kalit – darajada ixtisoslashgan moliyaviy institutlar joylashgan. Bu yerda mehnat taqsimoti aniq ifodalangan: JICA imtiyozli ODA kreditlari, grantlar va texnik yordam bilan shug'ullanadi; JBIC eksport va investitsiya kreditlarini taqdim etadi hamda yapon kompaniyalarining tijorat loyihalarini moliyalashtiradi; NEXI esa xususiy banklar kreditlarini sug'urtalash orqali siyosiy va tijorat risklarini qoplaydi. Aynan shu "uchlik" yapon kapitalining rivojlanayotgan bozorlarga kirishida asosiy risk-yumshatuvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Nihoyat, to'rtinchi darajada real sektorda ishlaydigan korporativ ishtirokchilar – Sojitz, Sumitomo, Mitsubishi, Marubeni, ITOCHU, Toyota Tsusho, Hitachi, Mitsui va boshqalar faoliyat yuritadi [13; 14].

Moliyaviy majburiyatlarning hajmi va tuzilishi. Yaponiyaning O'zbekistondagi moliyaviy ishtiroki bir nechta parallel oqim orqali shakllanadi, shu sababli ularni oddiy qo'shish orqali "umumiy investitsiya" ko'rsatkichini olish metodologik jihatdan noto'g'ri bo'ladi: portfellar qisman bir-birini qoplaydi. 1-jadvalda har bir instrumentning alohida hajmi va mazmuni keltirilgan.

1-jadval

Yaponiyaning O'zbekistondagi asosiy moliyaviy majburiyatlari


Institut / instrument	Hajmi (mlrd \$)	Mazmuni	Holat va manba
JICA – jalb qilingan mablag'lar (jami)	8,3	ODA kreditlari, grantlar, texnik yordam; energetika, transport, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, infratuzilma	2026-yil fevral holatiga [10; 37]
JICA – joriy loyiha portfeli	8,0	Faol bosqichdagi loyihalar; qo'shimcha 3 mlrd AQSh dollarlik tashabbuslar ishlab chiqilmoqda	2025-yil dekabr [11; 12]
JICA – amalga oshirilgan loyihalar	3,7	Yakunlangan loyihalar; 50 ga yaqin yirik tashabbus	[9]
JBIC – loyiha portfeli	5,0	Neft-kimyo, energetika, telekommunikatsiya, infratuzilma, yengil sanoat	Baholash [26]
JBIC – uch yillik tashabbus	3,7	Energetika, neft-kimyo, to'qimachilik va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish	2025-yil iyul [22]
Sojitz Corporation – 12 ta loyiha	5,87	Shundan yapon investitsiyasi – 2,27 mlrd \$	2026-yil may [15; 16]
"Samarqand 1 va 2" loyihasi	1,45	Quyosh generatsiyasi + akkumulyator; JBIC ulushi – 635 mln \$	2025-yil oktyabr [4; 8]
Yangi hamkorlik portfeli	12,0	Ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, suv resurslari, transport, shaharsozlik, turizm, qishloq xo'jaligi	2025-yil dekabr [1; 2; 19; 20]

Izoh: ko'rsatkichlar o'zaro qisman qoplanadi va jamlanmaydi.

Manba: 1-jadvalda keltirilgan manbalar asosida muallif hisob-kitoblari.

2-rasmdagi taqqoslash shuni ko'rsatadiki, 2025-yil dekabrda shakllantirilgan 12 mlrd dollarlik portfel o'zidan oldingi har qanday alohida majburiyatdan sezilarli darajada katta. Bu ko'rsatkich JICA ning o'ttiz yildan ortiq davr mobaynida jalb qilgan barcha mablag'laridan ham 1,45 baravar ko'p. Bunday sakrash miqdoriy emas, balki sifat o'zgarishidan dalolat beradi: gap endi alohida

loyihalarni moliyalashtirish emas, balki uzoq muddatli investitsiya dasturi haqida bormoqda. Portfelni amalga oshirish uchun alohida qo'shma investitsiya platformasini tashkil etish taklif etilgani ham shu fikrni tasdiqlaydi [2; 16].



Manba: 1-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-rasm. Yaponiyaning O'zbekistondagi asosiy moliyaviy majburiyatlari (2025-yil dekabr – 2026-yil may holatiga)

Hamkorlik xronologiyasi va 2025-yil burilish nuqtasi. Voqealar xronologiyasining tahlili hamkorlikning notekis, "sakrashli" rivojlanish traektoriyasini ko'rsatadi: uzoq muddatli sekin to'planish davrlari qisqa, ammo intensiv sifat sakrashlari bilan almashinadi.



Manba: [1; 2; 17; 24] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3-rasm. Yaponiya-O'zbekiston iqtisodiy hamkorligining asosiy bosqichlari (1992–2025)



2-jadval


Hamkorlikning kalit voqealari xronologiyasi

Sana	Voqea	Iqtisodiy natija	Ahamiyati
1992-yil 26-yanvar	Diplomatik aloqalar o'rnatilishi	ODA dasturining boshlanishi	Institutsional asos
1994-yil	Ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik qo'mitalari tashkil etilishi	Doimiy biznes-dialog kanali	Muvofiqlashtiruvchi mexanizm
2002-yil	Do'stlik va strategik hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma bayonot	Uzoq muddatli hamkorlik ramkasi	Huquqiy poydevor
2011-yil fevral	I. Karimovning Tokioga rasmiy tashrifi	Iqtisodiy hujjatlar paketi imzolanishi	Shartnomaviy bazaning kengayishi
2015-yil yanvar	Qo'mitalarning Tokiodagi qo'shma yig'ilishi	3,8 mlrd \$ lik investitsiya va kredit kelishuvlari	Birinchi yirik moliyaviy paket
2022-yil mart	Sirdaryo II IPP loyihasi bo'yicha kelishuv	1 600 MVt; birinchi yapon IPP	Tijorat modeliga o'tish
2025-yil iyul	JBIC ning uch yillik tashabbusi	3,7 mlrd \$ lik loyihalar dasturi	Tizimli moliyalashtirish
2025-yil 27-29-oktyabr	«Samarqand 1 va 2» bo'yicha kredit shartnomalari	1,45 mlrd \$; JBIC ulushi 635 mln \$	«Yashil» sohaga chiqish
2025-yil 18-20-dekabr	Prezident tashrifi; «Markaziy Osiyo + Yaponiya» sammiti; Kengaytirilgan strategik hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma bayonot	12 mlrd \$ dan ortiq portfel; qo'shma investitsiya platformasi; Samarqandda yapon modelidagi MIZ; Tokio deklaratsiyasi	Sifat jihatidan yangi bosqich

Manba: [1; 2; 14; 16; 17; 19; 20; 22; 24] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Hamkorlik modelining evolyutsiyasi. Olingan natijalar hamkorlik modelining to'rt bosqichli evolyutsiyasini ajratish imkonini beradi. Birinchi bosqichda (1992–2001) munosabatlar deyarli to'liq gumanitar va texnik yordamga asoslangan edi; Yaponiya donor, O'zbekiston esa retsiptiyent rolini bajardi. Ikkinchi bosqichda (2002–2016) huquqiy baza mustahkamlangach, JICA ning imtiyozli ODA kreditlari orqali infratuzilmani moliyalashtirish ustuvor bo'ldi – bu hali ham yordam mantig'i, ammo qaytarilish shartlari bilan. Uchinchi bosqichda (2017-2024) tijorat instrumentlari – JBIC kreditlari, IPP loyihalari, qo'shma korxonalar – birinchi o'ringa chiqdi; yapon kompaniyalari pudratchidan ulushdorga aylandi. Nihoyat, 2025-yildan boshlangan to'rtinchi bosqich strategik sheriklik bilan tavsiflanadi: qo'shma investitsiya platformasi, ko'p yillik portfel va institutsional formatlar (MIZ, «Markaziy Osiyo + Yaponiya») orqali munosabatlar tizimlashtirilmoqda.





Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

4-rasm. Hamkorlik modelining evolyutsiyasi: yordamdan strategik investitsiyaga

Olingan natijalar Yaponiya ishtirokining o'ziga xosligini baholashda hajm ko'rsatkichlari yetarli emasligini ko'rsatadi. Yaponiya modelining farqi hajmda emas, balki sifatda: u kapitalni institutsional kafolatlar (JBIC krediti hamda NEXI sug'urtasi), texnologiya transferi va kadrlar tayyorlash bilan birga taqdim etadi. Shu bilan birga, Yaponiya ko'pincha xalqaro rivojlanish banklari bilan konsorsiumda ishlaydi, bu esa loyihalarning ekologik va ijtimoiy standartlarini oshiradi.

Ikkinchi muhim jihat – majburiyatlarning o'lchanishi bilan bog'liq metodologik muammo. Turli institutlar o'z ko'rsatkichlarini turli sanalar va turli hisob birliklarida e'lon qiladi; portfellar bir-birini qisman qoplaydi. Shu sababli «Yaponiyaning O'zbekistondagi umumiy investitsiyalari» ko'rinishidagi yagona raqamdan foydalanish tahlilni buzadi va instrumentlar bo'yicha ajratilgan yondashuv afzal hisoblanadi. Olingan natijalarni umumlashtirish maqsadida Yaponiya bilan investitsiya hamkorligining SWOT-tahlili amalga oshirildi (3-jadval).

3-jadval

Yaponiya bilan investitsiya hamkorligining SWOT-tahlili

KUCHLI TOMONLAR (Strengths)	ZAIF TOMONLAR (Weaknesses)
30 yildan ortiq uzluksiz hamkorlik tajribasi 140 dan ortiq hujjatdan iborat huquqiy baza - JICA-JBIC-NEXI «uchligi» – to'liq risk-yumshatish mexanizmi - Yuqori texnologik standartlar va texnologiya transferi - Xalqaro rivojlanish banklari bilan hammoliyalashtirish	- Savdo aylanmasining o'ta kichik hajmi - Eksportning statik holati (8 yilda 15,1 %) - Loyihalarning yuqori kapital sig'imi va uzoq qaytim muddati - Hududiy kontsentratsiya (5 ta hudud) - Yapon korporativ madaniyatidagi qaror qabul qilishning sekinligi
IMKONIYATLAR (Opportunities)	TAHDIDLAR (Threats)
12 mlrd \$ lik portfelni amalga oshirish - Samarqandda yapon modelidagi MIZ - Qo'shma investitsiya platformasi 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energetika ulushini 30 % ga yetkazish maqsadi «Markaziy Osiyo + Yaponiya» mintaqaviy formati - IT va inson kapitali sohasidagi hamkorlik	- E'lon qilingan portfelning to'liq o'zlashtirilmasligi riski - Xitoy va Janubiy Koreya bilan kuchli raqobat - Valyuta va makroiqtisodiy risklar - Import qaramligining yanada chuqurlashuvi - Global energetika bozori konyunkturasining o'zgarishi - Yaponiyaning ichki fiskal cheklovlari

Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



XULOSA

1. Yaponiya-O'zbekiston iqtisodiy hamkorligi 2025-yilda sifat jihatidan yangi bosqichga o'tdi. 12 mlrd dollardan ortiq portfelning shakllantirilishi, qo'shma investitsiya platformasining taklif etilishi va munosabatlarning kengaytirilgan strategik hamkorlik darajasiga ko'tarilishi hamkorlikning tizimli, ko'p yillik xarakterga ega bo'lganini bildiradi.

2. Hamkorlik modeli donor-retsipiyent tipidan investor–sherik tipiga o'tishni yakunlamoqda. Bu jarayon moliyalashtirish instrumentlari tarkibida obyektiv aks etadi: ODA grantlari va imtiyozli kreditlar o'rnini projekt-finansing, IPP shartnomalari va ulushli ishtirok egallamoqda.

3. Yaponiyaning moliyaviy ishtiroki bir nechta parallel va qisman bir-birini qoplovchi oqimlardan tashkil topgan. Shu sababli majburiyatlarni jamlab, yagona «umumiy investitsiya» ko'rsatkichini keltirish metodologik jihatdan noto'g'ri bo'lib, tahlil instrumentlar kesimida olib borilishi lozim.

4. Yaponiya ishtirokining asosiy qiymati moliyaviy hajmda emas, balki institutsional sifatda. JICA-JBIC-NEXI mexanizmi, xalqaro banklar bilan hammoliyalashtirish va texnologiya transferi O'zbekiston uchun kapital narxini pasaytiradi hamda loyihalar standartlarini oshiradi.

Takliflar.

1. 12 mlrd dollarlik portfelning amalga oshirilishini kuzatuvchi ochiq monitoring tizimini yuritish: majburiyat, shartnoma va real o'zlashtirish bosqichlari bo'yicha alohida hisobot.

2. Loyihalarni hududiy jihatdan diversifikatsiya qilish – Farg'ona vodiysi va Qoraqalpog'iston kabi hozircha qamrab olinmagan hududlarga e'tibor qaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ministry of Foreign Affairs of Japan. Japan–Uzbekistan Relations: Summit Meeting, 20 December 2025.
https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01435.html

2. President of the Republic of Uzbekistan. President of Uzbekistan and Prime Minister of Japan elevate bilateral relations to an expanded strategic partnership level. 20.12.2025. <https://president.uz/en/lists/view/8817>

3. Center for Economic Research and Reforms (CERR). Trade, economic and investment cooperation between Uzbekistan and Japan: infographic. 18.12.2025. <https://yuz.uz/en/news/torgovo-ekonomicheskoe-i-investitsionnoe-sotrudnichestvo-uzbekistana-s-yaponiye-infografika>

4. Japan Bank for International Cooperation (JBIC). Project Financing for Two Solar Power Generation and Storage Projects in Uzbekistan. 27.10.2025. https://www.jbic.go.jp/en/information/press/press-2025/press_00100.html

5. Sumitomo Corporation. Sumitomo Corporation Signs Project Financing Agreements for Uzbekistan's Largest Solar Power and Battery Energy Storage Project. 29.10.2025.
<https://www.sumitomocorp.com/en/jp/news/release/2025/group/20500>





6. Asian Development Bank (ADB). ADB, Partners Sign Deal to Build Landmark Solar with Battery Power Plants in Uzbekistan, Largest in Central Asia. 29.10.2025. <https://www.adb.org/news/adb-partners-sign-deal-build-landmark-solar-battery-power-plants-uzbekistan-largest-central-asia>
7. Nippon Export and Investment Insurance (NEXI). Loan Insurance for Samarkand 1&2 Solar Power Plant and Battery Energy Storage System Project. 23.10.2025. <https://www.nexi.go.jp/en/topics/newsrelease/202510230959.html>
8. Kursiv Uzbekistan. JBIC to provide \$1.45 bn for renewable energy projects in Uzbekistan. 28.10.2025. <https://uz.kursiv.media/en/2025-10-28/jbic-to-provide-1-45-bn-for-renewable-energy-projects-in-uzbekistan/>
9. Ministry of Investment, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan. JICA Projects Expand Within the Framework of Sustainable Uzbekistan–Japan Partnership. <https://gov.uz/en/miit/news/view/84219>
10. Ministry of Investment, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan. Meeting with the Head of the JICA Office for Afghanistan. 2026. <https://gov.uz/en/miit/news/view/134610>
11. Trend.az. Uzbekistan, JICA reveal growing project partnership. 19.12.2025. <https://www.trend.az/business/4132210.html>
12. UzDaily. President of Uzbekistan Holds Talks with JICA Head on Expanding Strategic Cooperation. 19.12.2025. <https://www.uzdaily.uz/en/president-of-uzbekistan-holds-talks-with-jica-head-on-expanding-strategic-cooperation/>
13. Trend.az. Uzbekistan's Japanese business landscape expands tenfold. 19.12.2025. <https://www.trend.az/business/4132097.html>
14. Gazeta.uz. Uzbekistan to set up special economic zone based on Japanese model. 20.12.2025. <https://www.gazeta.uz/en/2025/12/20/japan-uzbekistan-business-forum/>
15. UzDaily. Sojitz to Develop US\$5.9 Billion Projects in Uzbekistan. 15.05.2026. <https://www.uzdaily.uz/en/sojitz-to-develop-us59-billion-projects-in-uzbekistan/>
16. Trend.az. Uzbekistan, Japan's Sojitz discuss implementation of major infrastructure, energy projects. 05.2026. <https://www.trend.az/business/4186187.html>
17. Sojitz Corporation. Sojitz Participates in Syrdarya II IPP Project in Uzbekistan. 29.03.2022. <https://www.sojitz.com/en/news/article/20220329.html>
18. The Times of Central Asia. Japan to Build Central Asia's Largest Airport in Uzbekistan by 2028. 15.10.2025. <https://timesca.com/japan-to-build-central-asias-largest-airport-in-uzbekistan-by-2028/>
19. The Times of Central Asia. Uzbekistan and Japan Announce Over \$12 Billion in New Strategic Projects. 24.12.2025. <https://timesca.com/uzbekistan-and-japan-announce-over-12-billion-in-new-strategic-projects/>





20. Kun.uz. Uzbekistan and Japan reach over \$12 billion in agreements during President Mirziyoyev's visit. 22.12.2025.

<https://kun.uz/en/news/2025/12/22/uzbekistan-and-japan-reach-over-12-billion-in-agreements-during-president-mirziyoyevs-visit>

21. UzDaily. Japanese Sojitz Corporation to Invest US\$1 Billion in Uzbekistan. 18.08.2025. <https://www.uzdaily.uz/en/japanese-sojitz-corporation-to-invest-us1-billion-in-uzbekistan/>

22. Modern Diplomacy. Japan and South Korea: Vital partners in the New Uzbekistan. 29.10.2025. <https://moderndiplomacy.eu/2025/10/29/japan-and-south-korea-vital-partners-in-the-new-uzbekistan/>

23. The Caspian Post. Uzbekistan, Japan Deepen Long-Term Strategic Partnership. 17.12.2025. <https://caspianpost.com/uzbekistan/uzbekistan-japan-deepen-long-term-strategic-partnership>

24. Dunyo Information Agency. Uzbekistan-Japan: Expanding the Boundaries of Strategic Partnership. 18.12.2025.

<https://dunyo.info/en/undefined/uzbekistan-yaponiya-rasshiryaya-granicy-strategicheskogo-partnerstva>

25. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Foreign trade turnover of the Republic of Uzbekistan. <https://stat.uz/en/>

26. Japan's Investments in Uzbekistan: A Comprehensive Analysis of Economic Partnership. Analytical report, February 2026. (Tadqiqotning birlamchi materiali.)

27. Japan International Cooperation Agency (JICA). Uzbekistan Country Page. <https://www.jica.go.jp/english/overseas/uzbekistan/index.html>

28. The Caspian Post. Uzbekistan, Japan Unveil \$12B Project Plan Across Sectors. 21.12.2025. <https://caspianpost.com/uzbekistan/uzbekistan-japan-unveil-12b-project-plan-across-sectors>



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**